

## TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYON.

**Yusupov I.B**

*Toshkent viloyati kasbiy ta'lim boshqarmasi  
Oqqo'rg'on tuman 1-son texnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

Darslarda o'quvchilarning yosh hususiyatiga xos bo'lgan ta'limni maqsadli zamonaviy texnologiyalar asosida pedagogik psixologiyaga yondashgan holda tashkil etish masalasi alohida muammo sifatida o'rganilmagan.

Chunki ta'lim jarayoni ko'p bosqichli yahlit tizimga ega bo'lib, uning har bir bosqichi ta'lim oluvchilarning yosh hamda o'ziga hos hususiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi intellektual qobiliyatiga hamda ta'limni izchil, tizimli va uzviy amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da bayon qilingan. Ushbu yo'nalishlarda islohotlarni bosh harakatlantiruvchi kuch-yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etish zarurligi ko'p karra ta'kidlanadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotida joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi.

Respublikamizda qo'llanma, darslik, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iboralari keng qo'llanilmokda. Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiya asosida o'qitishni boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash-ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan omillardir. Ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va ta'limiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o'zlashtirilishining eng maqul jarayonidir.

Pedagogik texnologiya ta'riflarida asosiy tushunchalar, "tizimli metod" ekanligi qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizim sifatidagi tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiyani o'qitishdagi boshqa yondashuvlardan farqlovchi bosh belgi hisoblanadi. An'anaviy o'qitish metodikasida bunday tizimli yondashuvga har doim ham rioya qilinavermaydi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan aloqada loyihalash ko'pincha an'anaviy o'quv

jarayonidagi yetishmaydigan holdir. Demak, ta'lim o'quv jarayonida belgilangan maqsadlar, mazmun, metodlar, vositalar va shakl kabi metodik tizim elementlari orasida uzviylikka rioya qilinmaydi. Natija ta'limda uzluksizlik ta'minlanmasligiga olib keladi. Pedagogik texnologiyalarda bularga albatta rioya qilinishi nazarda tutiladi.

O'ylab ko'ramiz, har qanday yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan mashg'ulotni o'tishda o'quvchi yoki tinglovchi uning mazmunini qisman bo'lsada tushuna bilish lozim, aks xolda u o'quv jarayonidagi mazkur texnologiyaning moxiyatini anglamay bir muncha qiynaladi va albatta dars jarayonlaridagi texnologiya ochilib o'qituvchi tomonidan tushuntirilmaydi, faqat yangicha pedagogik texnologiya sxemasi asosida u yoki bu mavzu o'tiladi xolos. Bu yerda bir kichkinagina muammo yuzaga keladi. Bu muammo xar bir tinglovchining shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy muammolaridir. O'quvchi o'zida mavjud muammoni bilmas yoki xal qilmas ekan uning xayolida o'sha muammo bo'lib mashg'ulot ikkinchi planga suriladi va ana shu yerda pedagogik psixologiya ishga tushadi va mashg'ulot davomidagi yuz berishi mumkin bo'lgan barcha muammolar qisman bo'lsada xal etilib ketaveriladi.

Misol uchun, bir o'quvchida qabul qilish qobiliyati sust va o'qituvchi mashg'ulotni buzmaganda uning bilan psixologik yondashuv asosida darsni uqtirib o'tishi lozim va bu holatda o'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashi emas, balki pedagogik psixologiyani mukammal egallagani qo'l keladi.

O'quvchini oldin loylarga chaplab, mashg'ulot oxiriga borib undan qaxramon yasash mumkin va aksincha va bu xolat ushbu o'quvchini shu darsga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartiradi, qachonki bunday yondashuv unutilmasligi uchun takrorlanib turilsagina.

O'quvchilar bilan ishlashda albatta uning ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy axvoli, shart-sharoitlar, dunyoqarashi va yana bir qator shaxsiy jihatlarini bilish ijobiy holatlarga olib keladi va shu jihatlariga asoslanib o'quvchilarga munosabat bildirilsa natijasi yomon bo'lmaydi.

Tahlil etilgan va o'rganib chiqilgan masalalar mashg'ulotning dastlabki holatini ob'yektiv belgilab olish imkoniyatini yaratadi, ya'ni o'quv jarayonini pedagogik psixologiya asosida tashkil etishning pedagogik mohiyatini ochib beradi:

- mashg'ulotlarga yangicha yondashuvni tashkil etish;
- mashg'ulotlarni pedagogik psixologiya asosida tashkil etishning shart-sharoitlarini yaratish;
- mashg'ulotlarning ta'lim samaradorligini oshirish omillari, shakl, usul, metod va vositalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- o'quv jarayonini psixologik yondashuv asosida tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlikning ta'minlanishiga erishish.

Ta'limni tashkil qilishda uning o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni va vazifalarini hisobga olgan holda ta'lim – tarbiya jarayonining asosini tashkil qiluvchi quyidagi o'ziga xos maxsus tamoyillarga tayanmoq zarur.

1. ta'limning ilmiyligi ;
2. ta'limning tarbiyaviyligi ;
3. ta'limning rivojlantiruvchiligi ;
4. fan va amaliyotning birligi ;
5. onglilik va faollik ; o'qitish shakllari, metodlari, vositalarining uyg'unligi va boshqalar.

Ta'lim oluvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda va bu borada albatta pedagogik psixologiyani bilish darkor.

Hozirgi sharoitda ta'lim-tarbiya muassasalarini islox qilishning asosiy yo'nalishlari amalga oshirilayotganda asosini pedagogik psixologiya tashkil etgan ta'lim-tarbiya bolalarning har tomonlama kamol toptirishning asosini vujudga keltiradi. Ularda o'tilgan materialni tez tushunishini, amaliyotda qo'llay olishini, hisoblash, yozish va madaniy xulq malakalarining mustahkam shakllanishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, pedagogik psixologiya ta'lim muassasalarida o'qishga ijtimoiy-foydali mehnatga halol munosabatni, Vatanga muhabbatni tarbiyalaydi. O'qitish jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning qo'yilishi bilimlarni o'zlashtirish hamda zarur shaxsiy sifatlarini shakllantirish uchun yaxshi sharoitlarni vujudga keltiradi.

Darsda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qarashlar va ma'naviy sifatlar ham shakllanadi, albatta, ya'ni mazkur funktsiyalarning birligi va o'zaro bog'liqligi kuzatiladi. Masalan, agar bola dastur materialini o'zlashtirsa, mustaqil fikrlashi yetarli darajada rivojlanmaganidan qat'iy nazar, unga yuqori baho qo'yamiz. Va aksincha, mustaqil holda va ishonch bilan mushohada yurita oladigan o'quvchi dastur materialini yetarlicha o'zlashtirmagan bo'lsa, ijobiy baho ololmaydi. O'qituvchining O'qitish funktsiyalari o'zaro bog'liqligini chuqur tushunish unga darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini ijodiy yo'sinda qo'yish va hal qilish imkonini beradi. Darslarda qo'yiladigan maqsadlar ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirishda usullarni izlash va darsning rang-barangligini ta'minlashga yordam beradi. O'qituvchining o'qitish jarayonida ushbu vazifalarni amalga oshirishni bilishi ularning ijodkorlik va pedagogik mahorat bilan ishlashini ta'minlaydi.

Pedagogik psixologiyaga tayangan holda darsning shaxsni kamol toptirish maqsadini amalga oshirish doimiy ravishda ma'lum g'oyalarni rejalashtirish va fikrlash mantig'ini, faollik va bilishga qiziqishni rivojlantirishdan iboratdir.

O'qituvchilik kasbini tanlagan o'quvchi yoshlar eng avvalo pedagogik psixologiyani mukammal egallashlari kerak. Chunki ish faoliyati davomida psixologik xolatlar juda xam ko'p uchraydi. Bular o'z ichida hatto aktyorlik, rejissyorlik qobiliyatiga ega bo'lishni ham talab etadi. Zero ta'limni texnologik tashkil etish o'qituvchidan shu sifatlarni ham talab etadi. O'quvchining qobiliyati o'sib hamda rivojlanib borish xarakteriga ega. Bu jarayon o'qituvchining kasb mahorati, tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'qituvchi islohotlar ob'yekti va sub'yekti darajasida faoliyat ko'rsatishi lozim. Ana shunday munosabatning ijtimoiy mohiyati rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu borada cheklanish va bir tomonlama yondashuvlar hamda kasbiy muvaffaqiyatsizlik holatlarining oldi olingan bo'ladi.

### **TAVSIYALAR**

Ma'ruzaning tahlili va umumlashtirilishi natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi:

-barcha ta'lim va tarbiya muassasalarida PSIXOLOG lavozimida ishlovchi xodimlar ham pedagog, ham psixolog bo'lishi lozim,

-ta'lim va tarbiya muassasasidagi PSIXOLOG oliy ma'lumotli psixolog bo'lishi va bir oylik psixologiya kursini tamomlab ishlashiga yo'l qo'yilmasligi lozim,

-tarbiyasi og'ir, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda tashabbuskor bo'lishi lozim,

-muntazam ravishda mashg'ulotlarning kechishini kuzatishi va lozim bo'lganda o'z fikrlarini bildirishi shart,

-ta'lim va tarbiya jarayoniga tanqidiy ko'z bilan qarashi lozim,

-vaqti-vaqti bilan o'quvchilar bilan turli qiziqarli psixologik mashg'ulotlar o'tkazib turishi kerak,

-muntazam o'z ustida ishlashi va hamkasblarni bunga o'rgatib borishi lozim,

-kasb etikasiga qat'iy amal qilishi shart.